

## ZAMONAVIY VALYUTA BOZORLARI VA ULARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Xolmamatov Murod

TDIU, MMT-76 guruhan talabasi

Ilmiy rahbar: dots. Umirov Abdusalom

**Annotatsiya:** ushbu maqolada zamonaviy valyuta bozorlarining mohiyati, valyuta operatsiyalari, xalqaro valyuta bozorlari haqida fikr mulohazalar keltirilgan. Shuningdek zamonaviy valyuta bozorlarining rivojlanish tendensiyalari ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** moliya bozorlari, valyuta bozorlari, zamonaviy valyuta bozorlati, valyuta operatsiyalari, moliya tizimi, integratsiya.

Bugungi kunda davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini pul bozori yoki valyuta bozori, undagi valyuta operatsiyalarining rivojisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababli xorijiy valyutalar bilan bog'liq jahon tajribasini o'rganish O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlarida shakllanib borayotgan bozor iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Globallashuv chuqurlashib borar ekan, iqtisodiyotlarning o'zaro bog'liqligi sezilarli darajada oshdi. Xalqaro valyuta bozorining rivojlanishi va evolyutsiyasi jahon moliya tizimining turli jihatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. Xalqaro valyuta bozori moliyaviy tizimlarning chegaralar osha integratsiyalashuviga yordam berdi. Texnologiyalar va kommunikatsiyalarning rivojlanishi bilan moliyaviy operatsiyalar tezroq, samaraliroq va qulayroq bo'ldi. Xalqaro valyuta bozorining rivojlanishi markaziy banklar va siyosatchilar o'rtaida ko'proq muvofiqlashtirishni taqozo etdi. AQSH dollari, yevro, iyena, funt sterling kabi asosiy valyutalarning kurslari jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta bozorlarini o'rganish, ularning jahon tutgan o'rnnini aniq, Xalqaro valyuta bozorlarini holatlarini tahlil qilish va kelgusida rivojlanish tendentsiyalari ko'rib chiqishdan iborat.

So'nggi yillarda to'lov sanoatidagi eng muhim o'zgarishlardan biri raqamli valyutalarning o'sishi bo'ldi. Bitcoin, birinchi va eng mashhur kriptovalyuta, 2009 yilda ishga tushirilgan. O'shandan beri yuzlab boshqa raqamli valyutalar yaratildi. Xalqaro raqamli valyuta bozori xalqaro moliya bozorining bir qismi hisoblanadi, chunki raqamli valyutalar bilan operatsiyalar turli darajadagi xalqaro raqamli valyuta bozori ishtirokchilarining iqtisodiy jarayonlariga xizmat qiluvchi pul oqimlari harakati bilan bevosita bog'liqidir. Xalqaro raqamli valyuta bozori axborot tizimida ishlaydigan kriptovalyutalar va raqamli moliyaviy aktivlar yordamida xalqaro moliya harakatining

bir shakli bo'lib, ular o'z navbatida blokcheynga asoslangan, shuningdek, Markaziy banklarning axborot tizimida ishlaydi. Shuni ham aytishimiz kerak xalqaro raqamli valyutalar bozori barcha milliy raqamli valyutalar bozorini xalqaro darajada bog'laydi va mamlakatga keladigan pul oqimlari yoki ular orqali boshqa mamlakatlarga yuborilgan pul oqimlari miqdorining ko'payishi katta yordam beradi.

Iqtisodiy, siyosiy va madaniy tusdagi xalqaro munosabatlar turli mamlakatlar fuqarolari bo'lim ish yuridik hamda jismoniy shaxslarning pul shaklidagi talablari va maburiyatlarini keltirib chiqaradi. Xalqaro hisobkitoblarning xususiyatli tomoni shundaki, ushbu hisob-kitoblarda baho va to'lov valyutasi sifatida odatda xorijiy valyutalar ishlatiladi, chunki hozircha umum tan olingan hamda barcha davlatlarda qabul qilinishi lozim bo`lgan Jahon kredit pullari mavjud emas. Shu bilan birgalikda har qanday mustaqil mamlakatda qonuniy to'lov vositasi sifatida uning milliy valyutasi ishlatiladi. Shu sababli tashqi savdo, xizmatlar, kreditlar, investitsiyalar bo'yicha hisob-kitoblar hamda davlatlararo to'lovlardagi muhim shartlardan biri bo'lib to'lovchi yoki benefetsiar shaxs tomonidan xorijiy valyutani sotib olish yohud sotish shaklidagi bir valyutani boshqa bir valyutaga ayrboshlanishi hisoblanadi.

Jahon valyuta, kredit, moliya va sug'urta bozorlari shartnomaning ob'yekti pul kapitali hisoblangan bozor munosabatlarining o'ziga hos jarayoni bo'lib hisoblanadi, Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi asosida shakllangan. Amal qilish nuqtai nazaridan ushbu bozorlar takror ishlab chiqarishning uzuksizligi va rentabelligini taminlash maqsadida Jahon miyosidagi moliyaviy oqimlarning to'planushi hamda ularning qayta taqsimotini taminlovchi bozor munosabatlarining tizimi bo'lib xizmat qilad. Institutsional nuqtai nazaridan esa Jahon moliyaviy oqimlari ular orqali amalga oshadigan banklar, ixtisoslashgan moliya-kredit tashkilotlari hamda fond birjalari yig'indisidan iboratdir.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi hom-ashyo manbalari va iste'molchilar bozorlari uchun raqobat kurashining kuchayishi bilan samarali investitsiyalar hamda moliyaviy oqimlar milliy xarakterini yo'qotgan va o'zining kosmopolitik tabiatini ko'rsatgan holda bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatga stihiyali asosda oqib o'tadi. Milliy valyuta, kredit va moliyaviy bozorlar o'zlarining mustaqilligini nisbatan saqlab qolgan holda faoliyatlarini to'ldiruvchi hamda milliy iqtisodiyot va pul-kredit tizimlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa shu kabi jahon bozorlari bilan chambarchas bog'lanib ketmoqdalar. Jahon valyuta, kredit va moliya bozorlari o'zlarining kata imkoniyatlari hamda ko'p maqsadliligining tez o'sishi natijasida xalqaro valyuta-kredit va moliyaviy munosabatlar hamda jahon iqtisodiyotining muhim zvenolaridan biriga aylandi.

Milliy valyuta, kredit va moliya bozorlarining jahon valyuta bozori operatsiyalaridagi ishtiroki quyidagi bir qator omillar bilan belgilanadi:

- mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi tegishli o'rni hamda valyuta iqtisodiy holati;
- rivojlangan kredit tizimi va yaxshi tashkil etilgan fond birjasining mavjudligi;
- soliqqa tortishning o'rta me'yorligi;
- xorijlik qarz oluvchilarga milliy bozorga chiqish va xorijiy qimmatli qog'ozlarga birja kotirovkasiga kirish imkonini beruvchi imtiyozli valyuta qonunchiligining mavjudligi;
- qulay geografik joylashishi;
- siyosiy tuzumning nisbatan barqarorligi va boshqa shu kabilar.

Xalqaro moliya bozoridan kapital jalb qilishning hozirgi holati global kapital oqimining o'zgaruvchan dinamikasini va jahon moliyasining o'zgaruvchan manzarasini aks ettiradi. Ushbu vaziyatni tahlil qilish chegaralar bo'ylab kapital oqimiga ta'sir qiluvchi asosiy ko'rsatkichlar, tendentsiyalar va omillarni baholashni o'z ichiga oladi. Tahlil qilishda quyidagi jihatlarni ko'rib chiqish mumkin:

Kapitalning kirib kelishi va chiqishi: kapitalning kirib kelishi va chiqib ketishining qonuniyatlarini o'rganish mamlakat yoki mintaqaning sof kapital holati haqida tushuncha beradi. Ushbu tahlil to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TDI), portfel investitsiyalari va transchegaraviy kapital oqimining boshqa shakllarining hajmi va tarkibini baholashni o'z ichiga oladi. Bu turli mamlakatlar yoki mintaqalarning investitsiya yo'naliishlari sifatidagi jozibadorligini va bu oqimlarni harakatga keltiruvchi omillarni tushunishga yordam beradi.



**1-rasm. FOREX ishtirokchilarining yosh kesimidagi taqsimoti (Daily FOREX)**

Rasmdan ko`rish mumkinki, FOREX ishtirikchilarining 45% ni 25-43 yoshliklar tashkil qiladi.



**2-rasm. FOREX bozorining mamlakatlat kesimida ish vaqtleri**

Valyuta bozorlari - bu, talab va taklif asosida shakllanadigan kurs bo'yicha xorijiy valyutalarning milliy valyutaga oldi-sotdisi amalga oshadigan rasmiy markazlaridir. Juhon moliyaviy markazlari - xalqaro valyuta, kreditmoliya operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar hamda oltin bilan bitimlarni amalga oshiruvchi banklar va ixtisoslashgan kredit-moliya institatlari to'planuvining markazlaridir. Tarixan ular milliy bozorlar negizida, so'ng esa jahon valyuta, kredit, moliya hamda oltin bozorlari zaminida paydo bo'lgan Juhon valyuta, kredit hamda moliyaviy bozorlari taalluqli milliy bozorlar negizida paydo bo'lgan va milliy bozorlar ular bilan yaqindan munosabatdadir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi prezidentining murojaatnomasini o'rganish va keng jamoatchilik o'rtasida targ'ib etishga bag'ishlangan ilmiy-ommabop qo'llanma. – T.: "Ma'naviyat", 2018. 189-b.
2. Allayarov, S. A. (2020). Strengthening tax discipline in the tax security system: Features and current problems. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(11), 124-128.
3. Allayarov, S., Allayarov, S., Yuldasheva, U., & Madjidov, N. (2020). Assessment of the effectiveness of the results of the fiscal policy of the republic of Uzbekistan. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(7), 7920-7926.
4. Vohidjonovich, Boltayev Nodirbek, and Rahimova Nozimaxon Jahongirovna. "RIVOJLANAYOTGAN MAMLAQATLARDA KAMBAG'ALLIK MUAMMOSI." ILM-FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI 2.1 (2024): 20-21.
5. O'roqov U. Y., qizi Rahimova N. J. Investitsiyalarni jalg qilishda qulay investitsiya muhitining ahamiyati //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 229-239.